

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 131 (920), 2023-yil 5-iyul, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official




yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TASHKILOT DOIRASIDAGI HAMKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA ANIQ TAKLIFLARNI ILGARI SURDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modining taklifiga binoan 4-iyul kuni SHHTga a‘zo davlatlar rahbarlari kengashining videoanjuman shaklidagi navbatdagi majlisida ishtirok etdi.



Hindiston tomonining raisligida o‘tgan tadbirda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpin, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon hamda Shanxay hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Chjan Min va

SHHT Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi Ijroiya qo‘mitasi direktori Ruslan Mirzayev ham qatnashdi. Kuzatuvchi mamlakatlar rahbarlari va faxriy mehmonlar sifatida sammitda Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiy, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Mo‘g‘uliston Prezidenti Xurelsux Uxnaagiyin, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov hamda BMT Bosh kotibi Antoniu

Guterrish va xalqaro tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi. Kun tartibiga muvofiq, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi, ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbolari muhokama qilindi. O‘zbekiston rahbari o‘z nutqida xalqaro munosabatlarda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar — geosiyosiy keskinlik kuchayib, ziddiyat-

lar avj olayotgani, global barqarorlik va ichkil taraqqiyotga xavf solayotgan yangi xatar va tahdidlar paydo bo‘layotgani, ekologiya, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi sohasidagi xavflar ortib borayotganini qayd etdi. — Shu munosabat bilan konstruktiv va ishonchga asoslangan muloqotni yo‘lga qo‘yishga kuchli ehtiyoj borligi yaqqol ko‘rinib turibdi, — dedi mam-lakatimiz yetakchisi.

O‘zbekiston nizo va ziddiyatlarni hal qilish, tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan yechimlarni izlash va murosali qarorlarni qabul qilishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining markaziy o‘rniga nisbatan prinsipial pozitsiyaga rioya qilishi ta‘kidlandi. SHHT faoliyati to‘g‘risida so‘z yurit ekan, O‘zbekiston Prezidenti ushbu tashkilot muvaffaqiyati uning asosiy tamoyillariga qat‘iy rioya etishga asos-

langanligiga e‘tibor qaratdi. Bular — tashkilotning blokdan tashqari maqomi, ochiqlikka qat‘iy sodiqlik, tenglik va konsensus asosida qaror qabul qilish tamoyillaridir. — Eng muhimi, bizning hamkorligimiz turli manfaatlar, yondashuvlar, qarashlar va madaniy tafovutlarni o‘zaro hurmat qilish va konstruktiv idrok etishga suyanadi, — dedi davlatimiz rahbari.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTIGA A‘ZO DAVLATLAR RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli rais!
Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Shanxay hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammitida barcha ishtirokchilarni samimiy qutlashdan mamnunman.
Hindiston Respublikasi Bosh vaziri janob Narendra Modiga bugungi uchrashuvimizni tashkil etgani uchun bildirilgan barcha minnatdorkilik so‘zlariga qo‘shilaman. Hindistonning SHHTga birinchi raisligi muvaffaqiyatli bo‘lganini qayd etamiz. Samarqand sammitida erishilgan kelishuvlarga muvofiq ko‘p qirrali hamkorligimiz jadal rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan ta‘kidlab o‘tmoqchiman. Biz tashkilotimizni yanada kengaytirish va isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni amalga oshirishni boshladik.
Fursatdan foydalanib, Eron Islom Respublikasining Shanxay hamkorlik tashkilotiga kirishi bilan bog‘liq barcha tartib-taomil jarayonlari yakuniga yetgani va ushbu davlatning tashkilotga a‘zo bo‘lgani bilan Eron Prezidenti Ibrohim Raisiyga bildirilgan tabrikarga qo‘shilaman.

O‘zbekiston, shuningdek, SHHTga a‘zo davlat maqomini olish maqsadida Belarus Respublikasining majburiyatlarini to‘g‘risida qabul qilinayotgan qarorni ham to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi.
Hurmatli majlis ishtirokchilari!
Barchamiz xalqaro munosabatlarda tizimida davom etayotgan tub o‘zgarishlarning guvohi bo‘lib turibmiz.
Afsuski, geosiyosiy keskinlik va mojarolarning kuchayishi kuzatilmoqda, global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga nisbatan yangi tahdid va xavf-xatarlar paydo bo‘lmoqda, ekologiya, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi sohasida tahdidlar avj olmoqda. Shu munosabat bilan konstruktiv va ishonchli muloqotni yo‘lga qo‘yish o‘tkir zaruratga aylanib borayotgani o‘z-o‘zidan ayondir.
O‘zbekiston bahr va mojarolarni hal etish, tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha maqbul yechimlarni izlash va qarorlarni qabul qilishda **Birlashgan Millatlar Tashkiloti markaziy o‘rin egalashi kerak, degan prinsipial pozitsiyaga rioya qiladi.**

Ta‘kidlash joizki, o‘zaro muloqot va ishonch bora-sidagi chora-tadbirlarni mustahkamlash maqsadida o‘tgan yili umumiy xavfsizlik va farovonlik yo‘lidagi birdamlik bo‘yicha Samarqand tashabbusini ilgari surgan edik.
Global miqyosda kun tartibida turgan eng dolzarb muammolarni muhokama qilish, ularning bepyon mintaqamizga ta‘sirini baholash va o‘zaro hamkorlikda takliflar ishlab chiqish maqsadida biz BMT, boshqa nufuzli xalqaro sheriklar bilan birgalikda mazkur Tashabbusning doimiy platformasini yo‘lga qo‘yishni rejalashtirmoqdamiz.
Qadrili hamkasblar!
SHHT doirasidagi ko‘p tomonlama va ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlash yo‘lidan borar ekanmiz, bugun biz tashkilotimizning muvaffaqiyati uning asosiy tamoyillariga qat‘iy rioya etish asosida ta‘minlanishini yaxshi tushunamiz. Bular — tashkilotning blokdan tashqari maqomi, ochiqlikka qat‘iy sodiqlik, teng huquqlilik va qarorlarni konsensus asosida qabul qilish tamoyillaridir.

Eng muhimi, bizning hamkorligimiz turli manfaatlar, yondashuvlar, qarashlar va tashkilotga a‘zo davlatlar o‘rtasidagi madaniy tafovutlarni o‘zaro hurmat qilish va konstruktiv idrok etishga asoslanadi.
SHHTni rivojlantirishning hozirgi bosqichida biz uning mintaqaviy kun tartibidagi eng dolzarb masalalarni hal qilishda samarali xalqaro tuzilma sifatidagi **yetakchilik rolini saqlab qolish va kuchaytirish juda muhim, deb hisoblaymiz.**
Shu munosabat bilan tashkilot doirasida qabul qilingan kelishuv va qarorlarni inventarizatsiya qilish, hamkorlik institut va mexanizmlari faoliyatini auditdan o‘tkazish, tashkilotimizni modernizatsiya qilish bo‘yicha kelishuvlarning amalga oshirilishini jadalashirishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.
Milliy tahlil markazlarini birlashtirgan **Ekspertlar forumi doirasida SHHT istiqbolari bo‘yicha qo‘shma tadqiqot loyihasini** amalga oshirishni ham taklif etamiz.
Bunday ishlar natijalarini navbatdagi sammitimiz davomida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Hurmatli yig‘ilish ishtirokchilari!
Bugungi uchrashuvimiz kun tartibidan kelib chiqib, SHHT doirasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha aniq takliflarimizni qayd etib o‘tmoqchiman.
Birinchi. Biz "Shanxay ruhi"ga muvofiq, tashkilot doirasida o‘zaro hamjihatlik va anglashuvni mustahkamlashni hal qiluvchi vazifa deb bilamiz.
Biz SHHTning yaxshi qo‘shnchilik, ishonch va transchegaraviy sheriklik kodeksini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surmoqdamiz. Ushbu hujjatning qabul qilinishi yangi sharoitlarda ustuvor vazifalarni belgilab olish, ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha umumiy yondashuvlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.
Ikkinchi. SHHT mintaqasi — bu ulkan iqtisodiy imkoniyatlar maydoni, tashkilotimizga a‘zo barcha mamlakatlar uzoq muddat davomida barqaror rivojlanishi uchun platforma va resurs bazasidir.

Davomi 2-betda

MUQOBIL ENERGETIKA

DARYOLARDAN NURGA TO‘LSIN UYIMIZ

Suv oqaveradi, umr o‘taveradi, degan gap bor. Bu azaliy hikmat mohiyatini kim qanday tushunishini bilmadim-u, lekin kasb taqozosiga ko‘ra kim bilan bu haqda fikr almashmaylik, eng avvalo, bundan elimiz qanday manfaat ko‘radi, degan savolga javob berishga to‘g‘ri keladi. Chunki gidroenergetika suvdan elektr quvvati hosil qilish degani. Demak, oqqan suv nurga aylanib, uyimizni yoritсин, korxonalarimiz ishlashini ta‘minlasin.

"O‘zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati faoliyatining asosiy maqsadi shu kabi vazifalarni hal etishga qaratilgan. Binobarin, mamlakatimiz yillik gidroenergetika salohiyati 27,5 milliard kilovatt-soatga baholanadi. Ayni

paytda uning 50 foizga yaqinidan foydalanib kelinayapti. Ana shu raqamning o‘ziyiq istiqbol imkoniyatidan dalolat beradi.

Davomi 4-betda

YANGI TIZIM — AMALDA

XOTIN-QIZLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH BO‘YICHA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Har qanday jamiyat va davlatning nechog‘liq insonparvar hamda adolatli ekani xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat va g‘amxo‘rligi bilan belgilanadi. Bu ezgu qadriyatni teran anglagan ajdodlarimiz azal-azaldan ayolni oila ko‘rki, jamiyat gultoji sifatida e‘zozlagan, ona siymosini tengsiz mo‘jiza, deb ardoqlagan.

Davomi 5-betda

2023 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi tashviqoti bo‘yicha maqola chop etilmoqda. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e‘lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

